



**“XAMSA” DOSTONIDAGI TOPONIMLARNING YASALISHI  
VA STRUKTURAVIY TUZULISHI**

**Hamroqulova Durdona**

Qarshi DU magistri

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7760016>

**ARTICLE INFO**

Received: 11<sup>th</sup> March 2023

Accepted: 21<sup>th</sup> March 2023

Online: 22<sup>th</sup> March 2023

**KEY WORDS**

*Onomastik yasalish, nomlashuv,  
onomastik leksika, indikator,  
onomastik birlik, apellyativ  
leksika.*

**ABSTRACT**

Onomastikaga oid adabiyotlarda so‘z yasashining asosan 3 ta turi qayd etiladi. Ular quyidagilar:

1. Nomlashuv.
2. Qo‘shimchalar qo‘shib atoqli ot yasash.
3. So‘zga so‘z qo‘shib atoqli ot yasash.

Quyida asosan nomlashuv usuli bilan yasalgan atoqli otlar haqida fikr yuritimiz. Zero onomastik yasalishda nomlashuv eng faol yasash sanaladi. Nomlashuv atamasini o‘zbek tilshunosligida apellyativ leksikadagi lisoniy birliklarning grammatik shakli, tuzilishi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, atoqli ot sathiga o‘tishi va onomastik birlikka aylanishi ma’nosida tushuniladi.

Nomlashuv onomastika uchun xos hodisa. Bu usul onomastikaning hozirgi davri uchun ham, qadimgi davrlar, ya’ni o‘tmishi uchun ham xosdir. Nomlashuv usuli onomastik birliklar hosil qilishning eng sodda, qulay lisoniy usuli sanaladi. Bu usul onomastik birliklar yaratishning ibtidoiy namunasi hamdir.

Jamiyat a’zolari o‘z atrofidagi narsalarni, jumladan, joylarni – aholi maskanlarini, yer yuza shakllarini, suvloqlarni nomlaydi. O‘zi yashaydigan hududdagi aholi maskanlarini, boshqa yer yuza shakllarini, suv havzalari turlarini shu unsur turini ifodalovchi lisoniy birlik nomi bilan ataydi. Jumladan:

1. Aholi maskanlari turini: *Qishloq, Qo‘rg‘on, Qal‘a, Rabot, Kat, Hisor, Shahar, Langar, Saroy.*
2. Yer yuza shakllarini : *Tepa, Qir, Dasht, Paykal, Ag‘ba.*
3. Suv havzalari turlarini: *Daryo, O‘kuz, Buloq, Chashma, Quduq, Ariq, Hovuz, Ko‘l, Qoq, Band, Nart, Darak, Choh (Chak).*

Shuni ta’kidlash joizki, *qo‘rg‘on – Qo‘rg‘on, tepa – Tepa, daryo – Daryo* tarzidagi nomlarda muqobilik asosida nomlashning qadimiy va zamonaviy ko‘rinishi amal qiladi. Obyekt turini



anglatuvchi indikator – apellyativ leksik birlikning nomlashish asosi, motivatsiyasi unutilgan, lekin aniq bir obyekt nomiga aylanishda nominatsiyaning asosi, motivatsiyasi yuzada bo'ladi, nomlovchi ham, bu nomni nutqida qo'llovchi ham nomlanish sababini, motivatsion tamoyilni bevosita anglaydi. Nomlangan obyekt (tepa, qo'rg'on, daryo) ma'lum bir hududda bitta bo'lganligi sababli ular ana shu lug'aviy birlik bilan atalgan. Tabiatda ma'lum bir obyekt turini bildiruvchi apellyativ leksik birlik shu hududdagi yagona – nomlanishi jamiyat ehtiyojiga aylangan – obyektning atamasi onomastik leksik birligiga aylanadi.

Albatta, bu lisoniy jarayon tilda muqimlashib qolishi ham, muqimlashmasligi ham mumkin. Chunki bu holat hamisha regional maqomda bo'ladi, ko'pincha kichik hududdagi aholining lisoniy, nutqiy faoliyatida va hayotida yuz beradi. Onomastik leksik birlikka aylangan leksemaning umumtil miqyosida onomastik leksikaga aylanishi shu obektning ijtimoiy mavqei, ahamiyati, nomlovchilarning boshqa, ko'pincha yon-atrofdagi aholi bilan, o'z tili yoki o'zga tilli xalq bilan munosabatiga bog'liq bo'ladi.

Qadimgi toponimlarning ma'lum bir qismi shu obyekt turini bildiruvchi atama – indikator ekanligi toponimik tadqiqotlarda isbotlangan. Masalan, *Kat* (Qarshi sh.) nomi asosidagi leksema sug'd tilidan o'zlashgan, ma'nosi – *qo'rg'on*. O'zbekistonda *Kat* degan qishloqlar bir necha. *Qo'rg'on* degan qishloqlar respublika hududida bir nechta o'nlikni tashkil qiladi. *Rabot*, *Ravot* nomli qishloq, mahalla, guzarlarning sanog'i ko'p. *Hisor* nomli joy nomlari ham bir qancha, ma'nosi: devor, istehkom, devor bilan o'ralgan turarjoy.

Onomastikada nomlashuv usulining bu turi barcha xalqlar tiliga xos. Amudaryo va Sirdaryoning qadimgi nomi *O'kuz*. Qadimgi turkiy tilda katta hajmdagi oqar suv *o'kuz* atalgan. Amudaryoning onomastik birlik deb atalishi "Shohnoma"da qayd etilgan. Hozirgi osetin va qadimgi eroniy tilda daryoni *don* deb atalishi ma'lum. *Don*, *Dunay*, *Diestr*, *Dnepr* daryolari ana shu don leksemasi bilan bog'liq. *Karpat* – tosh cho'qqi. *Ra*, *Edil/Itil*, *Kur*, *Nil*, *Dajla*, *Frot*, *Gang*, *Ob* kabi daryolarning nomi ham turli tillarga mansub bo'lib, suv, daryo degan apellyativ birlik bilan ma'no jihatdan tengdir.

Shuni aytish kerakki, tub apellyativ birlikning maxsus onomastik birlikka aylanishi har qanday hududdagi aholining nutkiy faoliyatiga xos bo'lsa ham onomastik birlikka aylangan barcha atoqli otlar tilning barqaror birligiga aylanavermaydi. Ba'zilarigina tilda barqarorlashib, turg'un, mustaqil onomastik leksik birlik maqomiga ega bo'ladi, ko'pchiligi regional chegaralanish qobig'ini yorib chiqolmaydi.

Nomlovchilarning ijtimoiy faoliyatidagi faollik, munosabatlarning kengayishi va boshqa ijtimoiy tamoyillar tufayli nomlanayotgan obektlarning turi ko'payadi, obektlar qiyoslanadi: tepa – Tepa – Oqtepa, Qoratepa, Balandtepa, Pasttepa; ... qo'rg'on – Qo'rg'on – Qo'rg'oncha, Qo'rg'onak, Qattaqo'rg'on, Oqqo'rg'on, Qoraqo'rg'on. Indikatorga aniqlovchi birlikning qo'shilishi onomastik leksik yasashning nisbatan so'nggi, murakkab, mukammal, yangi usuli. Bu usul bilan nom yasashida bir turdagi obektlar qiyoslanadi va nomlanadi. Nomlanish apellyativ leksik sathida emas, onomastik leksik sathida yuz beradi. So'nggi nomlanish usuli bilan dastlabki nomlanish usuli o'rtasida jiddiy, lisoniy va ijtimoiy tafovut mavjud.

Nomlashuv onomastik leksikada ancha sermahsul usul sanaladi. Bu usulda onomastik leksik birlik yasalishi etnonimlarning oykonim (aholi maskanlari nomi)ga aynishida ham aniqroq, ko'rinadi.



Nomlashuv usulida yasalgan onomastik leksik birliklari shaharlar mikrotoponimiyasida ko'proq tarqalgan, bu tur nomlar ba'zan shaharlar atrofidagi nomlar sirasida ham mavjud. Bular, asosan, quyidagilar :

-gar: *Charmgar, Zargar, Chilangar.*

-dor : *Jondor, Chorvador.*

-lar : *Laylaklar, Oqlar.*

-on/-yon : *Toqchiyon, Yuzon, Saronon, O'ruson, Chubuton, Regiyon.*

-li: *G'ishtli, Sandiqli, Qorali, Jo'sali, Toshli.*

-bop : *Alachabop, Qamchinbop, Gilambop, Karvozbop.*

-garon : *So'zangaron, Kamongaron, Chitgaron, Chilangaron.*

-don/-ton : *Bog'don, Karkidon, Rishton, Poshton.*

Zikrlangan onomastik leksik birliklarning barchasi qishloq, ovul nomlaridir. Bunday grammatik shakldagi toponimlar O'zbekistonning barcha shaharlari, viloyatlari va tumanlariga xos, bu tur toponimlarni etimologik tahlil qilganda asos va qo'shimchalarga ajratish mumkin. Ularning morfem tahlilida ham shu tamoyilga asoslanish ma'qul. Lekin yasalish tahlili va ularni yasalish asosi va yasovchi qo'shimchalarga ajratish ma'qul emas. Ularni apellyativ leksik birlik va ularning yasalishida ikki tarkibiy qismdan iboratligini ta'kidlash asosli. Ba'zan bunday onomastik yasalishni onomastik konversiya deb ham atashadi va bu usulda tarkibida yasovchi qo'shimcha (apellyativ leksik sathida qo'shimcha sanaladigan birliklar) bo'lmagan, shaklan tub so'zdan iborat bo'lgan atoqli otlar, aniqrog'i, toponimlar, misol sifatida keltiriladi. Toponimiya dalillari nomlashuv usulida yasalgan joy nomlari (oykonimlar, oronimlar, gidronimlar) birmuncha ko'p va xilma-xil ekanligini ko'rsatadi.

Shuni aytish kerakki, qayd etilgan onomastik leksik birliklarining, ayrimlari tojik tili yasalish tizimiga mansub (-gar: Zargar, Chilangar; -garon: So'zangaron, Chilangaron; -on/-yon: Yuzon, Toqchiyon; - i: Qo'qoni; - ak: Registonak, Tallak; - don/-ton: Bog'don, Rishton; -bop: Alachabop; Karvozbop; -dor: Jondor, Chorvador). Ikki (o'zbek va tojik, tojik va o'zbek) tilli aholi yashaydigan hududlarda bu tip onomastik leksik birliklar paydo bo'lgan va o'zbek tiliga o'zlashgan. Ularni o'zlashma onomastik leksik birliklar deb atash to'g'riroqdir. Chunki ular tayyor holda, yasalma tarzida o'zlashgan.

Shuni aytish kerakki, o'zbek tili toponimiyasidagi yasalish tizimi apellyativ leksikadagi yasalish tizimi va usullariga o'xshash, ular o'rtasida umumiylik bo'lsa-da, o'ziga xos farqlar, farqlanishlar, o'zgachaliklar ham mavjudki, ularni onomastik yasalish me'yorlari, qoliplari bilan tadqiq etish ayrim masalalarga oydinlik kiritishga to'g'ri asos bo'ladi. Ana shunday yasalish usullaridan biri nomlashuv deb qaralmog'i lozim.

Yuqoridagi fikrlar asosida "Xamsa" dostonidagi quyidagi toponimlarni yasama deb qarash mumkin: *Adoq, Kitvor, Koshg'ar, Samarqand, Turkiston, Shahrisabz, Qorabog', Qoratog', Hirmand, Charkas, Chaxcharon, Xaybar, Xavarnaq, Farxor, Faranj, Ummon, Sipahon. Salsabil, Salosil, Parvin, Nishopur, Nasrin, Muhit, Mukron, Moxon, Mag'rib, Movaraunnahr, Madoyin, Ko'hak, Kobuliston, Kirmon, Zangibor, Junpur* kabi.

Endi "Xamsa" dostonidagi toponimlarning strukturaviy xususiyatlariga to'xtalamiz. Bizga ma'lumki, o'zbek tili leksikasida leksemalar tuzilishiga ko'ra: sodda, qo'shma, juft, birikmali singari turlarga ajratib o'rganiladi. Bu usul bevosita atoqli otlar tizimi uchun ham



xos bo'lgan holat sanaladi. Biz "Xamsa" dostonidagi toponimlarni sodda, qo'shma va birikmali onomastik birlik sifatida tadqiq etishni ma'qul ko'rdik.

*Sodda toponimik birliklar.* Sodda nomlar bitta asosga ega bo'lgan nomlar: *Adoq, Xaybar, Parvin, Nasrin, Muhit, Mag'rib, Junpur, Kitvor, Koshg'ar, Samarqand, Turkiston, Shahrisabz,* kabilar. Sodda toponimlarning o'zi ham appelyativ leksikada bo'lgani singari tub sodda va yasama sodda toponimlarga bo'linadi.

*Qo'shma toponimik birliklar: Qorabog', Qoratog' kabi.*

*Birikmali toponimik birliklar: Movaraunnahr, Zangibor, Vodiyi Hamim* kabi. Birikmali toponimlarning aksariyati forsiy izofali birliklardan va arabiy izofali birlikdan tashkil topgan.

### References:

1. Qorayev S. Toponimika. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti". Toshkent, 2006.
2. Rahimhoyeva D. "O'zbek tili onomastik leksikasining tarkibiy qismlari" magistrlik dissertatsiyasi, Buxoro
3. Madrahimov Z. Tarixiy toponimika. – Toshkent: "Navro'z" nashriyoti, 2017.
4. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1988.
5. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasining Fanlar akademiyasining "Fan" nashriyoti.
6. Тепляшина Т.И. Суперанская А.В. Лингвистический аспект ономастических исследований. Вопросы ономастики, III. – Самарканд: Самаркандский госуниверситет, 1976.